| Ingliz tili nutq faoliyati turlarini rivojlantirishda leksik-assotsiativ tarmoqlardan foydalanishning lingvodidaktik asoslari.....                                              | 315 |
| <i>Mirzakamolova Maftuna Rahimjon qizi</i>                                                                                                                                      |     |
| Talabalarga ingliz tilidagi matnlarni kommunikativ metod yordamida o'qish texnikasini takomillashtirish usullari.....                                                           | 318 |
| <i>Mo'minova Mahliyo Axrorjonovna</i>                                                                                                                                           |     |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda ona tili mashqlarining roli .....                                             | 321 |
| <i>Boltayeva Guzal Tolibovna</i>                                                                                                                                                |     |
| Bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish .....                                                                                                      | 324 |
| <i>Ziyayeva Umida Turaxodjayevna</i>                                                                                                                                            |     |
| Maktabgacha hamda boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar jismoniy tarbiyasi tizimini modernizatsiya qilishning innovatsion istiqbollari .....                                    | 327 |
| <i>A'zamov Ruhullo Mahmudjon o'g'li</i>                                                                                                                                         |     |
| Boshlang'ich sinflarda informatika fanini o'qitishning maqsadlari va vazifalari.....                                                                                            | 333 |
| <i>Alikulova Bibisora Abdulvokhobovna</i>                                                                                                                                       |     |
| Bola shaxsini rivojlantirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning pedagogik ahamiyati .....                                                                              | 336 |
| <i>Azimova Dilnoza Sherzodovna</i>                                                                                                                                              |     |
| Raqamli didaktika sharoitida oliy ta'limni raqamlashtirishning nazariy asoslari va pedagogik xususiyatlari .....                                                                | 339 |
| <i>Berdikulova Shaxnoza Erkinjon qizi</i>                                                                                                                                       |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy qobiliyatini shakllantirishda dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda shaxmat o'yinidan foydalanish imkoniyatlar .....                | 343 |
| <i>Boboqulov Chori Urolovich</i>                                                                                                                                                |     |

|                                                                                                                                                                                    |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| O'zbek tilidagi "kasb-hunar" va "lavozim-amal" konseptlarining hozirgi zamon o'zbek tili konseptosferasidagi o'rni .....                                                           | 348 |
| <b>Dexqonova Muattarxon Ilxomovna</b>                                                                                                                                              |     |
| O'quv jarayonida ijtimoiy tarmoqlar orqali bilim almashishning didaktik imkoniyatlari va metodologik asoslari .....                                                                | 352 |
| <b>Ernazarov Alisher Ergashevich, Pimkulova Stora Boltayevna</b>                                                                                                                   |     |
| "Intellekt xarita" yordamida o'quvchilarga qattiq jismlarning solishtirma issiqlik sig'imini mavzusini tushuntirish va ularning to'la fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish ..... | 358 |
| <b>Eshboboyeva Muxlisa Zavqiy qizi</b>                                                                                                                                             |     |
| Inklyuziv ta'lim texnologiyalari .....                                                                                                                                             | 363 |
| <b>Fayzullayeva Shoira Shorahmatovna</b>                                                                                                                                           |     |
| Oliy pedagogik ta'lim tizimida hamkorlikda ta'lim nazariyasi va amaliyoti .....                                                                                                    | 366 |
| <b>Hojiyeva Zulfiya O'ktamovna</b>                                                                                                                                                 |     |
| Hikoya tuzishga o'rgatish maktabgacha yoshdagi bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishning muhim vositasi sifatida .....                                                   | 369 |
| <b>Imixanova Nodira Saidburxon qizi</b>                                                                                                                                            |     |
| Professional Competency Development of Future English Language Teachers: A Framework for the 21 <sup>st</sup> Century .....                                                        | 374 |
| <b>Kamoldin Tadjiboyev</b>                                                                                                                                                         |     |
| Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari .....                                          | 378 |
| <b>Nosirova Dildfuza</b>                                                                                                                                                           |     |
| Inklyuziv sinf muhitida zaif eshituvchi bolalar bilan musiqa mashg'ulotlarini tashkil etishning nazariy yondashuvlari .....                                                        | 383 |
| <b>Qizlarxon Isomova</b>                                                                                                                                                           |     |
| Raqamli ta'lim muhitida mustaqil ta'limni rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar .....                                                                                          | 389 |
| <b>Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovna</b>                                                                                                                                        |     |
| Boshlang'ich sinflarda perimetr, yuza va hajmni o'rganish metodikasi samaradorligini shakllantirish .....                                                                          | 392 |
| <b>Shodmonova Madina Otabek qizi</b>                                                                                                                                               |     |
| Chiziqli operatorlarning spektral xossalari .....                                                                                                                                  | 398 |
| <b>Sultonboyeva Zuhra Bobomurod qizi</b>                                                                                                                                           |     |
| Qisqa masofaga yuguruvchilar ish qobiliyatini oshirish usullari .....                                                                                                              | 402 |
| <b>Utayev Z. M.</b>                                                                                                                                                                |     |
| Neyropedagogik yondashuv asosida 9–11 yoshli o'quvchilarda ingliz tilida matnni o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda ijro funksiyalarining o'rni .....                  | 408 |
| <b>Xolboyeva Nodiraxon Abdumalik qizi</b>                                                                                                                                          |     |
| Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash muammosining dolzarbligi .....                                                                                               | 413 |
| <b>Yo'ldosheva Dilnura Nizomjon qizi</b>                                                                                                                                           |     |
| Bo'lg'usi tarbiyachilarda grafik organayzerlar vositasida ekologik tarbiyani shakllantirish usullari .....                                                                         | 416 |
| <b>O. Xo'janiyozova, Yuldashova Sanamjon Bobomurod qizi</b>                                                                                                                        |     |
| Взаимодействие воспитателей и родителей в процессе формирования нравственных представлений дошкольников .....                                                                      | 419 |
| <b>Жураева Наргиза Таировна, Абдуллаева Халимахон Дилёрна</b>                                                                                                                      |     |
| Развитие государственно-частного партнёрства в сфере дошкольного образования Республики Узбекистан .....                                                                           | 423 |
| <b>Курбанова Нуржамал Бахбергеновна</b>                                                                                                                                            |     |
| Talaba qizlarning jismoniy va funksional tayyorgarligini shakllantirishning ilmiy metodologik asoslari .....                                                                       | 426 |
| <b>M. M. Ma'rufov, Sh. R. Ma'rufova</b>                                                                                                                                            |     |
| Развитие языковых навыков у дошкольников через игровые методы обучения английскому языку .....                                                                                     | 430 |
| <b>Садикова Шоиста Акбаровна</b>                                                                                                                                                   |     |



|                                                                                                                                                                                   |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| “Узбекский текст в русской литературе XX–XXI веков...” .....                                                                                                                      | 433 |
| <b>Сулаймонова Дурдонахон Равшан кизи, Иванова Ирина Николаевна</b>                                                                                                               |     |
| Механизмы использования цифровых педагогических технологий для обеспечения непрерывности образовательного процесса учащихся начальных классов в условиях длительного лечения..... | 437 |
| <b>Турсунова Д. З., Холлиева Н. Х.</b>                                                                                                                                            |     |
| Патриотическое воспитание будущих педагогов: совершенствование методики формирования любви к родине в условиях профессиональной подготовки .....                                  | 440 |
| <b>Шарипова Холида Дехкановна</b>                                                                                                                                                 |     |



# RAQAMLI DIDAKTIKA SHAROITIDA OLIY TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI VA PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Berdikulova Shaxnoza Erkinjon qizi  
Guliston davlat universiteti tayanch doktranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni raqamlashtirish jarayoni doirasida raqamli didaktikaning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda uning zamonaviy pedagogik xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli didaktika konsepsiyasining paydo bo'lishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy, texnologik va psixologik omillar tizimlashtirilgan hamda XXI asr boshidan hozirgi kungacha bo'lgan davrda oliy ta'limdagi transformatsion jarayonlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli didaktika, oliy ta'limni raqamlashtirish, axborot-kommunikativ kompetensiya, raqamli pedagogika, mobil texnologiyalar, ta'lim transformatsiyasi, XXI asr ta'limi.

**Abstract:** This article provides a scientific analysis of the formation, stages of development, and modern pedagogical features of digital didactics within the framework of the digitalization of higher education in the Republic of Uzbekistan. The study systematizes the social, technological, and psychological factors that influenced the emergence of the concept of digital didactics and highlights transformational processes in higher education from the beginning of the 21st century to the present.

**Key words:** digital didactics, digitalization of higher education, information and communication competence, digital pedagogy, mobile technologies, educational transformation, 21st-century education.

**Аннотация:** В данной статье в рамках процесса цифровизации высшего образования в Республике Узбекистан проводится научный анализ формирования, этапов развития и современных педагогических особенностей цифровой дидактики. В исследовании систематизированы социальные, технологические и психологические факторы, повлиявшие на возникновение концепции цифровой дидактики, а также освещены трансформационные процессы в системе высшего образования с начала XXI века по настоящее время.

**Ключевые слова:** цифровая дидактика, цифровизация высшего образования, информационно-коммуникативная компетентность, цифровая педагогика, мобильные технологии, трансформация образования, образование XXI века.

## KIRISH

XXI asr boshidan boshlab global miqyosda kechayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim tizimiga, xususan, oliy ta'lim mazmuni va metodologiyasiga tub ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur jarayon ta'limni tashkil etishning tashkiliy va texnologik jihatlarinigina emas, balki didaktik yondashuvlarning nazariy asoslarini ham qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. An'anaviy ta'lim modelida bilim asosan tayyor axborot sifatida uzatilgan bo'lsa, raqamli ta'lim muhitida bilimni o'zlashtirish jarayoni talabning faol kognitiv faoliyati, mustaqil izlanishi hamda interaktiv muhit bilan o'zaro ta'siri orqali amalga oshmoqda. Shu nuqtai nazardan, raqamli didaktika ta'lim jarayonini texnologiyalar bilan boyitish emas, balki o'quv faoliyatining mazmuniy, metodik va psixologik asoslarini qayta loyihalashga qaratilgan konseptual yondashuv sifatida namoyon bo'lmoqda.

Raqamli ta'lim muhitida bilimni o'zlashtirishning kognitiv mexanizmlarini chuqur tahlil qilgan Richard Edwin Mayer o'zining multimedia ta'lim nazariyasida raqamli resurslardan foydalanish samaradorligi o'quv materialining tuzilishi, axborot yuklamasi va inson idrokining psixologik qonuniyatlari bilan bevosita bog'liq ekanligini ilmiy asoslab bergan. Uning tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, raqamli muhitda taqdim etilayotgan axborot vizual va verbal kanallar orqali muvozanatli uzatilgan taqdiridagina ta'lim samaradorligi oshadi. Ushbu yondashuv raqamli didaktikaning nazariy poydevorini tashkil etib, o'quv materiallarini loyihalashda didaktik dizayn, kognitiv yuklamani boshqarish va interaktivlikni ta'minlash muhim metodik mezonlar ekanligini ko'rsatadi. Shu bois,



Mayerning ilmiy qarashlari raqamli didaktikani faqat texnik vositalar majmui sifatida emas, balki inson tafakkuriga moslashtirilgan pedagogik tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston sharoitida ham raqamli didaktika muammolari so'nggi yillarda mahalliy olimlar tomonidan tizimli ravishda o'rganilayotgani kuzatiladi. Jumladan, pedagogika sohasida olib borilgan tadqiqotlarda B. Xodjayev, Sh. Sharipov va N. Muslimovlar oliy ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayoni ta'lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta loyihalashni talab qilishini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Ularning tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, raqamlashtirish sharoitida ta'lim natijalari faqat bilim hajmi bilan emas, balki talabani muammoni hal qilish, axborotni tahlil qilish hamda kasbiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlari bilan belgilanadi. Mazkur olimlarning qarashlariga ko'ra, raqamli didaktika an'anaviy didaktikaning mantiqiy davomi bo'lib, uni inkor etmaydi, balki yangi sharoitga mos ravishda boyitadi.

Raqamlashtirish sharoitida didaktika faqat texnik vositalar yoki platformalar majmui sifatida emas, balki ta'limning maqsadlari, mazmuni, metodlari va natijalarini qayta belgilovchi metodologik asos sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, o'qituvchining roli bilim beruvchi subyektdan ta'lim jarayonini loyihalovchi, boshqaruvchi va refleksiv tahlil qiluvchi mutaxassisga aylanishi raqamli didaktikaning muhim xususiyati sifatida e'tirof etiladi. Shu jihatdan, mahalliy olimlar tomonidan ilgari surilgan g'oyalar raqamli didaktikaning milliy modelini shakllantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

O'tkazilgan tahlillar raqamli didaktika konsepsiyasining shakllanishiga bir nechta asosiy omillar ta'sir ko'rsatganini ko'rsatadi. Avvalo, O'zbekiston Respublikasining jahon ta'lim makoniga integratsiyalashuvi oliy ta'limda raqamli texnologiyalarni keng joriy etishni talab qilmoqda. 2020–2024-yillar davomida oliy ta'lim muassasalarida masofaviy va aralash ta'lim shakllaridan foydalanish ulushi 25–30 %dan 65–70 %gacha oshgani qayd etilgan. Mazkur jarayon an'anaviy didaktik yondashuvlarning qayta ko'rib chiqilishini taqozo etdi. Shuningdek, global epidemiologik vaziyat ta'lim jarayonining keskin raqamlashtirilishiga sabab bo'ldi. Kunduzgi ta'limdan masofaviy ta'limga o'tish jarayonida o'qituvchilarning 60 %dan ortig'i raqamli platformalarda dars o'tish bo'yicha yetarli metodik tayyorgarlikka ega emasligini bildirgan. Bu holat raqamli didaktik yondashuvlarni ilmiy asoslash va metodik jihatdan takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytirdi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Zamonaviy talabalar avlodining ijtimoiy-psixologik va kognitiv xususiyatlarini inobatga olgan holda shakllantirildi. Raqamli muhitda voyaga yetgan talabalar axborotni qabul qilish, qayta ishlash va undan foydalanish jarayonida an'anaviy o'quvchilardan tubdan farq qiluvchi xususiyatlarga ega. Marc Prensky tomonidan ilgari surilgan "raqamli avlod" konsepsiyasiga ko'ra, zamonaviy talabalar ko'pkanalli axborot oqimiga moslashgan bo'lib, qisqa vaqt ichida katta hajmdagi ma'lumotlarni parallel qayta ishlash qobiliyatiga ega. Tadqiqot natijalari talabalarning qariyb 70 foizi uzoq vaqt davomida bir xil, monofunksional faoliyat bilan shug'ullanishda qiyinchilikka duch kelishini, biroq interaktiv va multimodal muhitda ularning kognitiv faolligi 2–2,5 barobar yuqori ekanligini ko'rsatadi. Ushbu holat raqamli va interaktiv ta'lim vositalaridan foydalanishni pedagogik zaruratga aylantirib, ta'lim jarayonida talabani faol subyekt sifatida ishtirokini ta'minlashni talab etadi. Biroq mazkur xususiyatlarni faqat texnologik ustunlik sifatida talqin qilish yetarli emas.

Paul Alexander Kirschner va Pedro De Bruyckere tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, talabalarning raqamli muhitga moslashganligi avtomatik ravishda yuqori o'quv natijalarini kafolatlamaydi, balki samarali o'qitish pedagogik dizayn, didaktik maqsadlarning aniqligi va o'quv faoliyatining mantiqiy tashkil etilishiga bevosita bog'liqdir. Ushbu yondashuv raqamli didaktikaning faqat texnik emas, balki chuqur psixologik va metodik asosga ega bo'lishi lozimligini ko'rsatadi.

Raqamli didaktikaning rivojlanishi bilan zamonaviy o'qituvchining kasbiy roli ham sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Bugungi kunda o'qituvchi bilimni tayyor holda uzatuvchi shaxs sifatida emas, balki ta'lim jarayonini loyihalovchi, raqamli resurslarni tanlovchi va o'quv faoliyatini boshqaruvchi mutaxassis sifatida namoyon bo'lmoqda. Punya Mishra va Matthew Koehler tomonidan ishlab chiqilgan TPACK konsepsiyasida o'qituvchining fan mazmuni, pedagogika va texnologiyani integratsiyalashgan holda qo'llay olish kompetensiyasi asosiy shart sifatida belgilangan bo'lib, ushbu yondashuv o'qituvchini "o'qituvchi-muhandis" va "o'qituvchi-dizayner" sifatida talqin qilishga ilmiy asos yaratadi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur qarashlar O'zbekiston olimlarining tadqiqotlarida ham o'z aksini topgan. Jumladan, Nodirjon Muslimov o'z ishlarida raqamlashtirish sharoitida o'qituvchining axborot-kommunikativ hamda metodik kompetensiyalarini rivojlantirish ta'lim samaradorligining asosiy omili ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, Shavkat



Sharipov oliy ta'limda raqamli muhitda dars o'tuvchi pedagog ta'lim jarayonini nafaqat boshqarishi, balki uni didaktik jihatdan loyihalashi zarurligini qayd etadi. Ularning fikricha, raqamli texnologiyalar o'qituvchining rolini kamaytirmaydi, aksincha, uning kasbiy mas'uliyati va ilmiy-metodik salohiyatiga bo'lgan talabni oshiradi.

Raqamlashtirish sharoitida klassik didaktikaning tarixan shakllangan tarkibiy qismlari ham muayyan transformatsiyaga uchramoqda. An'anaviy kognitiv-bilimga yo'naltirilgan pedagogikadan ma'no shakllanishiga asoslangan pedagogikaga o'tish jarayoni talabning shaxsiy tajribasi, individual o'quv trayektoriyasi va semantik rivojlanishiga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi. Mazkur yondashuvda bilim tayyor mahsulot sifatida emas, balki talabning faol bilish jarayonida shakllanadigan natija sifatida qaraladi. Shu jihatdan, raqamli didaktika talabning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlovchi zamonaviy pedagogik paradigma sifatida namoyon bo'ladi.

1-jadval: **Klassik va raqamli didaktikaning taqqoslanishi**

| Ko'rsatkich       | Klassik didaktika      | Raqamli didaktika                      |
|-------------------|------------------------|----------------------------------------|
| Ta'lim modeli     | Bilimga yo'naltirilgan | Ma'no va kompetensiyaga yo'naltirilgan |
| O'qituvchi roli   | Axborot manbai         | Fasilitator, dizayner                  |
| Ta'lim vositalari | Darslik, doska         | Raqamli platformalar, simulyatsiyalar  |
| Talaba faolligi   | Past-o'rtacha          | Yuqori                                 |
| Baholash          | Yakuniy nazorat        | Jarayonli va kompetensiyaviy           |

Jadval ma'lumotlari raqamli didaktikaning ta'lim jarayonining barcha komponentlarini qayta tashkil etishga qaratilganligini hamda talabning faol ishtirokini ta'minlashni asosiy maqsad sifatida belgilashini ko'rsatadi. Raqamli didaktikaning markaziy tushunchalaridan biri axborot-kommunikativ kompetensiya hisoblanadi. Tadqiqot natijalari ushbu kompetensiyaga ega bo'lgan talabalar guruhida o'zlashtirish ko'rsatkichlari o'rtacha 18–22 % ga yuqori ekanligini aniqladi. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarida axborot-kommunikativ infrazuzilmaning rivojlanishi ta'lim texnologiyalari assortimentining keskin kengayishiga olib keldi. So'nggi besh yil davomida oliy ta'limda qo'llanilayotgan raqamli platformalar soni qariyb 3 barobar oshgani qayd etildi.

2-jadval: **Raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga ta'siri**

| Raqamli vosita                | Qo'llanilish darajasi (%) | Ta'lim samaradorligiga ta'siri |
|-------------------------------|---------------------------|--------------------------------|
| Virtual laboratoriyalar       | 45–50                     | Yuqori                         |
| Simulyatsiya dasturlari       | 55–60                     | Yuqori                         |
| Mobil texnologiyalar          | 70–75                     | O'rtacha-yuqori                |
| An'anaviy AKT (prezentatsiya) | 80–85                     | O'rtacha                       |

Jadval natijalari interaktiv va tajribaga asoslangan raqamli vositalar ta'lim samaradorligiga an'anaviy axborot-kommunikativ texnologiyalarga nisbatan kuchliroq ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlaydi. Mualliflar tajribasiga ko'ra, bo'lajak o'qituvchilar orasida mobil texnologiyalardan intensiv foydalanish keng tarqalgan bo'lib, talabalarning qariyb 85 % i mobil qurilmalarni kundalik o'quv faoliyatida muntazam qo'llaydi. Bu holat raqamli didaktikaning mobil ta'lim komponentini rivojlantirish zaruratini ko'rsatadi. Mobil texnologiyalar o'quv jarayonini yanada moslashuvchan va jozibador qilib, talabalar faolligini oshiradi hamda o'qishga bo'lgan motivatsiyani 20 % dan ortiq darajada kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli didaktika O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ta'lim mazmuni, metodologiyasi va tashkiliy asoslarini tubdan yangilashga xizmat qiluvchi muhim ilmiy-pedagogik yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur yo'nalish ta'lim jarayonini faqat zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlashni emas, balki ta'limning maqsadlari, kutilayotgan natijalari hamda pedagogik mexanizmlarini qayta konseptualashtirishni taqozo etadi. Raqamli didaktika sharoitida bilim uzatish jarayonining markazida o'qituvchi emas, balki talabning faol bilish faoliyati, mustaqil izlanishi va refleksiv fikrlashi o'rin egallamoqda.

Raqamli texnologiyalar, axborot-kommunikativ kompetensiyalar va zamonaviy didaktik yondashuvlarning uyg'unlashuvi ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirayotganini xorijiy va mahalliy tadqiqotlar tasdiqlamoqda. Jumladan, Richard Edwin Mayer tomonidan asoslab berilgan kognitiv multimedia ta'lim nazariyasi raqamli muhitda o'quv materiallarini didaktik jihatdan to'g'ri loyihalash o'zlashtirish sifatini oshirishning muhim sharti ekanligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, Punya Mishra va Matthew Koehler tomonidan ishlab chiqilgan TPACK modeli o'qituvchining kasbiy faoliyati texnologik, pedagogik va fan mazmuni komponentlarining integratsiyasiga asoslanishi lozimligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.



O'zbekiston olimlarining tadqiqotlari ham mazkur xulosalarni tasdiqlaydi. Xususan, Nodirjon Muslimov raqamlashtirish sharoitida pedagoglarning axborot-kommunikativ va metodik kompetensiyalarini rivojlantirish ta'lim sifati va barqarorligini ta'minlovchi asosiy omil ekanligini ta'kidlaydi, shuningdek, oliy ta'limda raqamli muhitda samarali o'qitish didaktik dizayn, ta'lim jarayonini modellashtirish hamda pedagogik refleksiya bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatib beradi. Ushbu qarashlar raqamli didaktikaning milliy modelini shakllantirishda muhim ilmiy-metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Raqamli didaktikani tizimli va bosqichma-bosqich joriy etish talabalarning bilimni amaliyotda qo'llash qobiliyatini, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini hamda kasbiy tayyorgarligini rivojlantiradi. Bunda ta'lim jarayoni natijalari faqat akademik bilimlar bilan cheklanib qolmay, balki talabaning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, raqamli didaktika kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishning samarali pedagogik mexanizmi sifatida e'tirof etilishi mumkin.

## XULOSA

Umuman olganda, raqamli didaktika konsepsiyasini O'zbekiston oliy ta'lim amaliyotiga chuqur va tizimli integratsiya qilish dissertatsion tadqiqotlar uchun mustahkam nazariy-metodologik poydevor yaratadi hamda ta'lim tizimining barqaror rivojlanishi, xalqaro ta'lim makonida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va intellektual salohiyatni oshirish uchun strategik ahamiyatga ega hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muslimov Nodirjon Abdullaevich. Pedagogik kompetensiya va uni shakllantirishning metodik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 320 b.
2. Sharipov Shavkat Rahmonovich. Oliy ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etishning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 280 b.
3. Xodjayev Bahrom Abdurasulovich. Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 240 b.
4. Alizhonov Dilmurod Anvarovich. Interaktiv platformalar asosida raqamlashtirilgan fizik mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Guliston, 2022. – 145 b.
5. Abduqodirov Abror Abduvohobovich. Masofaviy ta'lim texnologiyalari va ularning pedagogik imkoniyatlari. – Toshkent: Fan, 2017. – 210 b.
6. Mayer, Richard E. Multimedia Learning. – 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 576 p.
7. Prensky, Marc. Digital Natives, Digital Immigrants. On the Horizon, 2001, Vol. 9, No. 5, pp. 1–6.
8. Kirschner, Paul A.; De Bruyckere, Pedro. The myths of the digital native and the multitasker. Teaching and Teacher Education, 2017, Vol. 67, pp. 135–142.
9. Селевко Галина Константиновна. Современные образовательные технологии. – Москва: Народное образование, 2018. – 256 с.
10. Зимняя Ирина Алексеевна. Компетентностный подход в образовании. – Москва: Логос, 2017. – 384 с.
11. UNESCO. Education in a Post-COVID World: Nine Ideas for Public Action. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – 64 p.
12. OECD. Education at a Glance 2022: OECD Indicators. – Paris: OECD Publishing, 2022. – 460 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №1(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.